

TOPONIMIKANING GEOGRAFIYADAGI O'RNI

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasiga

katta o`qituvchisi

M.O.Vohidova

A.S. Anorboyeva

talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya ta'limida toponimikaning o'rni, toponimikaning rivojlanish tarixi va uni geografik jihatdan o`rganilishi, toponimika turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: toponimika, toponimika turlari, joy nomlari

Geografik obyektlar qancha ko'p va xilma-xil bo'lmasin, ularda bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish, tahlil qilish, albatta, xalqning ijodiy mahsuli bo'lgan joy nomlarini aniqlash va o'rganishdan boshlanishi kerak. Chunki, nomlar obyektlarning geografik o'rni, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini hamda boshqa geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarurdir. H.Hasanovning iborasi bilan aytganda: «nomlar joylarga shunday moslab berilganki, mahalliy aholining zakovatiga qoyil qolasan kishi. Yangi tug'ulgan chaqaloqqa ot qo'yish oson. Chunki yuzlab tayyor ismlar bor, ulardan faqat o'zingizga ma'qulini tanlab olasiz. Ammo joy nomlari tayyor emas. Ularni «o'ylab topish» kerak, ismini jismiga monand qilish kerak», yoki «agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog'lar va suvlarning xosiyati, o'simligu hayvonot turlari, savdo-sotiq, hunar-kasb, xazinalar, janglar-u e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'ladi».

Joy nomi, ya'ni toponim - geografik obyektning aniq manzilidi yoki S.Qorayev ta'biri bilan aytganda «geografik nomlar, joyni biron xususiyatini, u bilan bog'liq tarixiy voqyea - hodisani o'zida mujassam etgan oddiy so'z bilan joyning ittifoqi hisoblanadi». «Binobarin shunday ekan, geografik nomlar «o'lik» so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan xazinadir».

Har bir nom deb yozgan edi T.Nafasov, til - fakti, tarix-hodisasi, geografiya - adresati. U muhim ijtimoiy-siyosiy funksiya bajaradi, yer yuzasidagi obyektlar uchun oriyentr sanaladi. Toponimiya xalqlar va tillar munosabatini aks ettiruvchi ko'zgudir. O'tmishda toponimlar dastlab geograflar, tarixchilar tomonidan o'rganilgan. Hozir toponimlarni lingvistlar sistema sifatida tadqiq etmoqda. Bizning nazarimizda kishilik jamiyatni uchun geografik nomlarning adreslik funksiyasi eng muhim hisoblanadi, chunki faqat uning yordamida bir geografik obyektni ikkinchisidan ajratish, farqlash va aniq o'rnini topish mumkin.

Geografik nomlarning adreslik funksiyasi naqadar muhimligini V.A.Nikonov shunday tasvirlaydi: «Bir lahzaga faraz qilaylikki, planetamizda geografik nomlar o'chirib tashlandi. Shaharlar, qishloqlar, daryolar, dengizlar, tog'lar, davlatlar, ko'chalar hammasi nomsiz. Natijada, transport izidan chiqqan, odamlar qayerga yurishini, yuklarni qayerga tushirishni,

tez yordam mashinasi qayerga borishini bilmaydi, jahon xo'jaligi inqirozga, insoniyat esa ibtidoi jamoa davriga tushib qolish xavfi paydo bo'lgan, buning hammasi kichkina bir geografik nom tufaylidir».

Geografik xaritada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o'rin tutishini hamda toponimning adreslik funksiyasining «til-fakti va tarix-hodisasi»likdan ham muhimroqligi inobatga olinsa toponimikani geografiyaning bir tarmog'i deb hisoblashga asos paydo bo'ladi. Ammo, haqiqatdan ham shundaymi?

Ko'p yillar davomida olimlar orasida geografik nomlarni o'rganuvchi toponimika fanining o'rni bahs va munozaralarga sabab bo'lib, hozirga qadar bu masala uzil-kesil hal qilinmagan. Masalan, taniqli geograf H.Hasanov "Geografiya fanining bir sohasi-toponimika O'rta Osiyoda hali "bo'z" soha deb qayd qilgan" yoki boshqa asarida «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desa xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tatqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi» deb yozgan.

Geografik nomlar nafaqat til qonununiyatlari yordamida, balki ko'pincha geografik qonununiyatlar asosida ham paydo bo'ladi. Xalq biron tabiat hodisasini geografik termin bilan ifoda etadi, binobarin, geografik nomlar tarkibida geografik terminlar ko'p uchraydi. Xullas, geografiyani yaxshi bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermaydi. S.Qorayevning geografik nomlarni o'rganuvchi fan bo'lgan toponimikaga nisbatan aytilgan fikrlarida muayyan chalkashliklar borga o'xshaydi, ammo bunday emas, toponimika geografiya, tilshunoslik va tarix fanlari oralig'ida paydo bo'lganligi sababli u shunday xulosalar bayon qilganligi aniq.

Buni olimning "toponimika geografiya, tilshunoslik va tarix fanlari qo'shilgan joydagи mustaqil fan bo'lib, geografik va tarixiy tahlil metodlaridan foydalanilganda tilshunos ham, geograf ham, tarixshunos ham o'zini toponomistman deya olishi mumkin. Toponimika ayniqsa geografiya uchun katta ahamiyatga egadir" degan fikridan bilib olsa bo'ladi. Geografik nomlar har doim ham biron tarixiy sharoit taqozosini bilan dunyoga keladi va juda uzoq vaqt saqlanib qolishi bois tarix uchun juda katta ahamiyatga ega. Shunday ekan tarixchilar bu masalada qanday fikr-mulohazalar bayon qilishgan? Atoqli rus tarixchilari A.I.Sobolevskiy va S.B.Veselovskiy toponimikaning tarix faniga tegishli ekanligini targ'ib qilganlar.

Sharq toponimiyasining bilimdoni, professor E.M.Murzayev geografik nomlarni o'rganuvchi ta'limotning fanlar tizimidagi o'rniga baho berib, olimlar orasida bu masalada qaramaqarshi fikrlar mavjudligini aytadi. Chunonchi, XX asrning ikkinchi yarimida geografik fanlarning yangi klassifikasiyasini taqdim etgan geograflar (Ryabchikov, 1959, Kalesnik, 1961), toponimikaga ham shu qatordan joy ajratganlar. Tilshunos-toponimist olimlar esa aksincha, har qanday geografik nom bu so'z va u til mahsuli, shu sababdan toponimika lingvistik fandir. Geograflar esa toponimika yutuqlarini o'z maqsadlari yo'lida foydalanib uning qo'llash tomonlari bilan chegaralanishlari lozim degan g'oyani ilgari suradilar. Ammo, masalaga bunday bir tamonlama qarash ko'pchilik toponimistlarga ham ma'quil emas.

Aniqroq qilib aytganda deb yozgan edi E.M.Murzayev “toponimikaga lingvistik va tarixiy uslublardan hamda geografik tahlil usullaridan foydalanadigan alohida fan sifatida qarash kerak. Geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining oralig’ida paydo bo’lgan toponimika ularning imkoniyatlaridan to’g’ri foydala olsagina katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda geograf ham, lingvist ham, tarixchi ham ana shu fanlardan zaruriy bilimlarga ega bo’lib, ulardan aniq toponimik tahlilda foydalana olsa o’zini toponimist deb hisoblashi mumkin”.

Shu joyda H.Hasanovning quyidagi fikrini keltirish maqsadga muvofiq. Olimning yozishicha “Bu “talash”ni hyech qachon bir yoqlik qilib bo’lmasa kerak. Ammo filologlar ham, geograflar ham, tarixchilar ham tan olsinlar, toponimika uchala fan chegarasidagi sohadir, kimki toponimika bilan astoydil shug’ullanmoq istasa, u bir necha fanni o’rganib olishi zarur: filolog etnografiyani, tarixni, tabiiy va iqtisodiy geografiyani, tarixchi filologiyani, geografiyani, geograf tilni, tarix va etnografiyani bilishi lozim. Mabodo toponimikaga bittagina fan nuqtai nazaridan qaralsa, ish xom bo’ladi. Albatta, har bir mutaxassis o’z fanini birinchi o’ringa qo’yishi turgan gap.”

Darhaqiqat, toponimikani boshqa fan sohalaridan farq qiladigan xususiyatlaridan biri bu uning geografiya, tarix va tilshuloslik fanlariga nisbatan egallagan oraliq mavqyeidir. Toponimikaning o’rni to’g’risidagi turlicha qarashlarning sabablaridan biri balki uning shunday mavqyega ega ekanligidadir. Har holda shunisi aniq, har qanday salmoqli toponimik material har uchala fanga ham o’rganish va tatqiq qilish manbai hisoblanib, uni har bir tatqiqotchi o’z mutaxassisligi nuqtai nazaridan o’rganadi.

Tarixchini geografik nomning ko’proq kelib chiqish tarixi, qaysi davrda paydo bo’lganligi, tarixiy jarayonlar bilan bog’liqligi, o’sha davr sharoiti, arxeologik va etnografik manbalari, mahalliy xalqning tarixi va hokazolar bilan qiziqadi. Geograf esa oykonimning bunday nomlanishida uning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik o’rni qanday ta’sir qilganligi, joyning bunday nomlanishida tabiiy omillarning ta’siri qanaqa, nima sababdan bu joyda doimo shamol bo’lishi va hokazo sabablarni geografik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Shundan ko’rinib turibdiki, joy nomi til, tarix va geografik jihatdan to’la va ilmiy asoslangan holatda to’g’ri talqin qilinsa uning haqiqiy etimologiyasi aniqlash mumkin bo’ladi.

Geografik nomlarni to’g’ri izohlash juda mushkul ish. Buning uchun H.Hasanov aytganidek, kamida «o’zbek tilini puxta bilish va qo’shni tillardan xabardor bo’lish kerak. Vatanimiz tarixini, qadimda o’tgan qabilalarni, aholining xo’jalik faoliyatini va albatta, har bir joyning geografik xususiyatlarini yaxshi bilish kerak. Ana shunday har tamonlama ma’lumotlarni bir-biriga solishtirib, qo’shib, joy nomining tarixini aniqlay olasiz».

Toponimlar muayyan voqyelikni - reallikni ifoda etadi. Masalan, T.Enazarov esa, toponimlar odamlarning makon hamda zamonda qanday harakat qilishiga ko’maklashishi, insонning adashmasdan u obyektdan bu obyektga borishi, makonda mavjud bo’lgan turli xil geografik muhitlarni bir-biridan farqlab olishi kabi ma’rifiy-ma’naviy vazifalarni ham bajarishini qayd qilgan.

Yana bir masalaga e’tiborni qaratish lozim, ba’zi mutaxassislar toponim ma’nosini uning nomidan ham aniqlasa bo’ladi degan fikrga salbiy munosabat bildirib uni nomaqbul usul deb hisoblaydilar. Ammo, bu nigilik qarash bo’lib, geografik nomlarni o’rganuvchi

toponimika fanini, qolaversa balki umuman geografiya fanining bu sohadagi rolini ham kamsitishga olib kelishi mumkin.

Hamma gap shundaki, geografik “obyekt nomining ma’nosini shu obyektning o’zidan qidirish kerak. Chunki geografik obyektlar ko’p qirrali, ko’p qiyofalidir. Bu ko’p qirralilik obyektning katta-kichikligida, relyefning, tuproqlarning, tog’ jinslarining, o’simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligida, o’zlashtirish tarixida, yer osti va yer usti suvlariga naqadar boyligida, oftobruy-soyaruyligida, boshqa obyektlarga nisbatan tutgan o’rnida, qanday xalq, qabila, urug’ yashagani va yashayotganligida o’z aksini topgan.

Geografik obyektlar shu qadar ko’p xususiyatlarga egaki, bu jihatdan biron atoqli ot sohiblari (kishilarning shaxsiy ismlari, osmon jismlari nomlari, urug’-aymoq nomlari va boshqalar) geografik nomlar oldiga tusha olmaydi”. Geografik nomlarni izohlashda geografik kuzatishlar naqadar muhimligini Yu.A.Karpenko bunday ifodalaydi: “... real hayotda nomning tug’ilishiga turtki bo’lgan alomatni topish toponimika uchun nihoyatda muhimdir.”

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki toponimika geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining yutuq va usullaridan salmoqli foydalangandagina yuqori natijalarga erishishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda toponimist har uchala fanning toponimik tahlil uchun zarur bo’lgan sohalarini bilishi va ulardan unumli foydalanishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижоновна Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." Интернаука 10-4 (2017): 29-31.
2. Мелибоева, Феруза Солижоновна, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУФОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." Интернаука 10-4 (2017): 31-34.
3. Мелибоева, Феруза Солижоновна. "ФАРГОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." Интернаука 10-4 (2017): 34-36.
4. Мелибаева, Феруза Солижоновна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." Europaische Fachhochschule 1 (2016): 3-6.
5. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана". Самарканд. 2013.
6. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." Экономика и социум 2-1 (93) (2022): 73-76.

7. Meliboeva, F. C. "MANUFACTURING IMPACT ASSESSMENT ON HUMAN HEALTH." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12 (2023): 113-115.

8. Meliboeva, F. S. "DISEASES CAUSED BY ENVIRONMENTAL POLLUTION IN THE KOKAND OASIS." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12 (2023): 116-119.